


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TALIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



«Tasdiqlayman»

Buxoro davlat universiteti rektori

O.X. Xamidov

2023-yil

avgust

№ 10-60230100-104

№ 10-60230100-104

2023-yil 29 avgust

**“Sharq tillari (arab)”
fanidan**

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200000 – San`at va gumanitar soha
Ta`lim sohasi: 230000 – Tillar
Ta`lim yo`nalishi: 60230100 – Filologiya va tillarni o`qitish : o`zbek tili
Fanning kodi: ShTII0
Joriy o`quv yili: 2023-2024
Semestr: 1-2
Kreditlar soni: 5-5
Fan turi: majburiy
Fan tili: o`zbek

такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони//www.lex.uz

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son farmoni//28-yanvar, 2022-yil. <https://lex.uz/uz>

8. Гранде Б.М. Введение в сравнительное изучение семитских языков. Изд. «Наука», Москва. 1972.

9. Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. Изд. Восточной литературы. Москва. 1963.

10. Каменский Н.С. Краткий вводный курс фонетики арабского литературного языка. Москва. 1946.

11. Каменский Н.С. Ударение в современном арабском литературном языке / УзВИИЯ. Т.2. Вьп.3. 1946.

12. Ковалёв А.А., Шарбатов Г.Ш., Учебник арабского языка. Изд. «Наука», Москва. 1998.

13. Шагаль В.Е., Меркин М.Н., Учебник арабского языка. Военное изд. Москва. 1983.

14. Шарбатов Г.Ш. Современный арабский язык. Москва. 1961.

15. Юшманов Н.В. Грамматика литературного арабского языка. Москва. 1985.

Arab (fors) tili. O'UM, O'zMU 2011. O'zbek filologiyasi fakulteti kutubxonasi.

16. Халидов Б.З. Араб тили дарлиги / Тарж. Остонова Г.А. -Т.: "Фан" 2007.


17. Ibrohimov B. O'zbekcha-arabcha so'zlashgich. -T., 1994.

18. Abdullaev M. Arab tili. T., 2006.

Elektron manbalar

19. www.zivo-net.uz

| | |
|----|--|
| 7. | Fanning o'quv dasturi Buxoro davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. (BuxDU Ilmiy kengashining 2023-yil 29-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi.) |
| 8. | Fan/modul uchun mas'ullar: D.Z. Rajabov – BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasining mudiri G.A. Astanova – BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasining professori, f.f.d. |
| 9. | Taqrizchilar: Y. Saidov- BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasining professori, f.f.d. B.M. Jo'rayeva – BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasining professori, f.f.d. |



| | | | |
|-----------------------------------|---|-------------------------------|-------------------------------------|
| Fan/modul kodi ShT110 | O'quv yili 2023-2024 | Semestr 1-2 | ECTS - Kreditlar 5-5 |
| Fan/modul turi Majburiy | Ta'lim tili O'zbek | | Haftadagi dars soatlari 2 |
| Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| 1. | Sharq (arab) tillari | 120 | 180 |
| 2. | | | 300 |

I. Fanning mazmuni

Fanni o'rganish zaruriyati. O'zbek tili va adabiyoti, folklorining tarixan shakllangan adabiy, lingvistik maktablari va ta'limotlarini, mumtoz va zamonaviy metodlarini, buyuk ajdodlarimizning o'zbek va jahon tilshunosligi rivojiga qo'shgan hissasi, ularning ilmiy merosi, ona tilimizning xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzi, uning boshqa tillar bilan aloqalari, o'zbek tili va adabiyotining rivojlanish istiqbollari bilan bog'liq ilmiy muammolarni tadqiq etish uchun arab tili va uning grammatik normalarini o'rganish dolzarblik kasb etadi

Fanning maqsadi: Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga arab tilining nazariy asoslari, ularning asosiy grammatik kategoriyalarini o'rgatish hamda ularni amalda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilish.

Fanning vazifasi – talabalarda ilmiy axborot bilan ishlash ko'nikmalarini va malakalarini shakllantirish, o'qish, yozish, arab imlosidagi qolyozma, toshbosma gazeta, jurnal va ilmiy asarlarni o'qishga, ulardan o'z faoliyati uchun zarur bolgan axborotlarni olishga o'rgatish, joriy imloga tabdil va tahlil qila olish ko'nikmasini hosil qilish.

II. Asosiy nazariy qism (amaliy mashg'ulotlar)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Kirish. Fonetika va yozuv. Umumiy ma'lumotlar

Arab yozuvi va uning tarqalishi. Arab adabiy tilining vujudga kelishi. Klassik arab tili. Hozirgi zamon arab adabiy tilining shakllanishi. Arab lahja(sheva)larining o'ziga xosligi. Arab alifbosi.

2-mavzu. Arab undosh harflari. Qisqa va cho'ziq unillar

Arab harflarining o'ziga xos xususiyatlari. O'zbek va arab tillaridagi undoshlarning qiyosiy tasnifi. Arab tiliga xos undosh tovushlar. Unli

tovushlar va ularning yozilishi. Bo'g'in.

3-mavzu. Arab undosh harflari. Tashdid

Shadda, ya'ni ikkilantirish belgisining so'zlarda ishlatilishi. So'zlarni to'g'ri o'qish qoidalari. Alifmasura, ya'ni qisqa alifning so'zning oxirida o'qilish qoidasi. Ta-marbuta, ya'ni bog'langan "t" shaklining so'zda kelishi.

4-mavzu. Arab undosh harflari. Tanvin

Arab tilida tanvin, ya'ni kelishiklarning turlari. Tanvin damma (bosh kelishikning so'z oxirida o'qilishi. Tanvin kasra (qaratqich kelishik)ning so'z oxirida o'qilishi. Tanvin fatha (tushum kelishik) shakli.

5-mavzu. Arab undosh harflari. Hamza

Arab tilida hamzaning turlari. Qat'iy (o'qiladigan) hamza va uning imlo qoidalari. Vastali (o'qilmaydigan) hamzaning yozuvda ifodalanishi.

6-mavzu. Shamsiy va qamariy harflar. Aniqlik artikli

Arab alifbosining 2 guruhga bo'linishi. Shamsiy harflar va ularning nomlanishi. Qamariy harflarning nomlanishi. Al-artikldagi "1" tovushining talaffuzi. Qamariy harf bilan boshlangan so'zlarning talaffuz etilishi. Shamsiy harflar bilan boshlangan so'zlarning talaffuzi.

7-mavzu. So'z turkumlari. Ismning turlari va uning grammatik kategoriyalari Ilmiy uslub. Sohaviy terminlarning yasalishi

Ot so'z turkumi; Arab tilida otlarning turlari. Turdosh otlar va ularga oid so'zlar. Yakka shaxs ismi, geografik joy nomi, narsa yoki jonivormning nomini anglatib kelgan atoqli otlar.

8-mavzu. Sifat. Tub, nisbiy va rangni anglatuvchi sifatlar

Arab tilida sifatning turlarga bo'linishi. Tub sifat va uning xususiyatlari. Nisbiy sifatga oid so'zlarning ma'no xususiyatlari.

9-mavzu: Olmoshlar

Arab tilida olmoshlarning turlari. Kishilik olmoshlari. Ko'rsatish olmoshlari, turlari, ularning gapdagi vazifalari. So'roq olmoshlari. Birikma olmoshlari. Ot bilan keluvchi birikma olmoshlarning vazifalari. Ajratuvchi yoki ta'kidlovchi olmoshning gapdagi vazifasi va qo'llanilishi

10-mavzu. So'z o'zagi. O'zak undoshlar. Shakl yasovchi undoshlar

Arabcha so'z o'zagi undosh harflardan iboratligi. Arab alifbosidagi barcha harflar o'zak tashkil qiluvchi undoshlar ekanligi. Noo'zak harflar va ularning qo'llanilishi.

11-mavzu. So'z vaznlari

Arab tilida lug'at bilan ishlashda so'zning o'zagini aniqlanishi. So'zning o'zagini aniqlash orqali so'zning ma'nosini topish.

12-mavzu. Jins kategoriyasi

Arab tilidajins turlari. Muzakkar jins, ya'ni erkak kishini ifodalovchi so'zlar. Muannas jins, ya'ni ayol kishini ifodalovchi so'zlar. Sohada davlat tilida ish yuritish masalalari.

13-mavzu. Kelishik kategoriyasi

Arab tilida kelishik: bosh, qaratqich va tushum kelishigi. Ismlarning turlanishi. Ikki kelishikli ismlar. Sohaviy farmoyish hujjatlarining xususiyatlari.

14-mavzu. Son kategoriyasi. Ikkillik son

Son va uning grammatik turlari. Ikkillik sonning yasash va shakllari.

15-mavzu. Ko'plik son. To'g'ri ko'plik

Ko'plik sonning gapdagi ma'nolari. To'g'ri ko'plikning yasash shakllari. Ko'plikda moslashuv.

16-mavzu. Siniq ko'plik. Siniq ko'plikning shakllari

Siniq ko'plikdagi so'zlarning gapdagi vazifalari va xususiyatlari.

17-mavzu. Son. Sanoq son va ularning qo'llanilishi

Son turlari. Sanoq sonlarning sanalmish bilan kelishi. Sonlarning moslashgan va moslashmagan aniqlovchilar bilan kelishi. Sanoq sonlarning jins bilan kelishi va uning o'zgarish qoidalari.

18-mavzu. Tartib son va ularning qo'llanilishi

Tartib son. Tartib sonlarning sanalmish bilan kelishi. So'zlarning ishtatilishi. So'zi so'roq so'zi vazifasida. So'zi hitob so'zi vazifasida.

19-mavzu. Holat kategoriyasi

Arab tilida so'zlarning noaniq holatda kelishi. So'zlarning aniq holatda kelishi. Aniqlik artiklsiz kelgan so'zlarning aniq holatda bo'lishi.

20-mavzu. Gap va uning turlari

Ismiy gaplar. Arab tilida gap turlari. Ismiy gap va uning vazifalari. Gap bo'laklarining kelish tartibi. Ismiy gapning jinsda va sonda moslashishi. Kesimi ega haqida xabar beradigan ismiy gap. Kesimi eganing o'zi haqida xabar beradigan ismiy gap.

21-mavzu. So'roq gaplar va uning turlari

Arab tilida so'roq gaplarning turlari. Umumiy so'roq gaplar va ularga oid yuklamalar. Maxsus so'roq gaplar va so'roq olmoshlari. Old ko'makchilar bilan birikkan so'roq olmoshlari. Alternativ so'roq gaplar va ularning gapdagi ma'nolari.

22-mavzu. Fe'liy gaplar

Fe'li-kesimli gap. Fe'liy gapning strukturasi.

23-mavzu. Old ko'makchilar (predloglar)

Arab tilida old ko'makchilarning turlarga bo'linishi. Asl predloglar va ularning gapdagi ma'nolari. Ot predloglarning gapdagi vazifalari. Murakkab predloglarning ma'no xususiyatlari.

24-mavzu. Predloglarga qo'shiluvchi birikma olmoshlari

Birikma olmoshlarining predloglarga qo'shilishi va sodir bo'ladigan ayrim o'zgarishlar. Fe'liy yoki ismiy gaplarda predlogli birikma olmoshining kelishi.

25-mavzu. Kesimi old ko'makchi bilan kelgan ismiy gap

Old ko'makchili ismiy kesimning yasalishi. "Kechikkan ega" haqida ma'lumot. Kesim old ko'makchi bilan kelgan ismiy gapning vazifasi.

26-mavzu. So'z birikmasi. Moslashgan (sifatlovchi) aniqlovchi

Arab tilida so'z birikmalari. Moslashgan aniqlovchining gapdagi vazifasi. Aniqlanmish va aniqlovchining tartib qoidalari. Moslashgan aniqlovchining grammatik kategoriyalar bilan bog'lanishi.

27-mavzu. Moslashmagan (qaratqichli) aniqlovchi (izofa)

Izofa birikmasi. Qaratqichli aniqlovchi va uning grammatik xususiyatlari. Qaralmish va qaratqich aniqlovchi. Izofaning grammatik kategoriyalar bilan kelish qoidalari. Izofa zanjiri, uning yasalishi va gapdagi vazifalari.

28-mavzu. Egaga ta'sir qiluvchi yuklamalar

Arab tilida yuklamalarning turlari. Egaga ta'sir qiluvchi yuklamalarning o'ziga xos xususiyatlari. Yuklamalarning gapdagi vazifalari.

29-mavzu. Y muvofiq inkor yuklamasi

Y inkor yuklamalarning ismiy va fe'liy gaplarda kelishi. Inkor yuklamalari va ularning vazifalari.

30-mavzu. Fe'li haqida umumiy ma'lumot

Arab tilida fe'li so'z turkumi haqida tushuncha. Fe'lining turlari. Fe'li zamonlari haqida ma'lumotlar. Fe'li mayllari. Arab tilida fe'li boblari.

31-mavzu. Fe'li boblari. Uch undoshli fe'llarning I bobi. Fe'lining o'tgan zamon shakli

Arab tilida fe'li boblari haqida. I bob fe'li, shakllari. Arab tilida zamon shakllari. O'tgan zamonda fe'lining tuslanishi. O'tgan zamon fe'li bilan keluvchi yuklamalar.

32-mavzu. To'ldiruvchi

Arab tilida to'ldiruvchi. Vositali to'ldiruvchining gaplarda ifodalanishi. Vositasiz to'ldiruvchining vazifalari va ma'no xususiyatlari.

33-mavzu. Fe'li bilan kelgan birikma olmoshi

Fe'lga qo'shiluvchi birikma olmoshning gapdagi vazifalari. Fe'liy gapda fe'lga qo'shiluvchi birikma olmoshning ma'no va xususiyatlari.

34-mavzu. Fe'ling hozirgi-kelasi zamon shakli

Fe'ling hozirgi-kelasi zamon shaklining yasalishi. Hozirgi-kelasi zamon fe'li bilan qo'llaniladigan yuklamalar.

35-mavzu. Fe'li mayllari. Fe'ling shart mayli. Fe'ling istak mayli.

Fe'ling buyruq mayli

Fe'li shart mayli yasalishi. Shart yuklamalari va ularning gapdagi vazifalari. Istak mayli. Istak yuklamalari va ularning gapdagi vazifasi. Fe'li

buyruq maylining yasalishi. Buyruq maylining gapdagi vazifasi.

36-mavzu. Fe'l boblari

II va V bob fe'llarining yasalish shakllari. III va VI bob fe'llarining yasalish shakllari. Ularning ma'nolari. IV, VII va IX bob fe'llari. V, VII va IX bob fe'llarining yasalish shakllari. Ularning ma'nolari. VIII va X bob fe'llari. VII va X bob fe'llarining yasalish shakllari. Ularning ma'nolari.

37-mavzu. Fe'l vaznlaridan yasalgan sifatdosh shakllari

Sifatdosh shakllari va ularning turlari. Aniq daraja sifatdosh. Majhul daraja sifatdosh. Boblarning sifatdosh shakllari yasalishi va ularning ma'nolari.

38-mavzu. Fe'l vaznlaridan yasalgan masdar shakllari

Arab tilida masdar shakllari, ya'ni 'zbek tilidagi harakat nomi. Masdar shakllari. Har bir fe'l boblarining masdar shakllari yasalishi va ularning ma'nolari.

III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limning bosh maqsadi talabalarining o'quv fani asosida olgan nazariy bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish, ijodiy tafakkumi o'stirish, o'z ustida ishlash va mustaqil tahsil qilish malakasini rivojlantirish, ilmiy tadqiqot olib borishga tayyorlashdan iborat. Shu maqsadga muvofiq, fan va mustaqil ta'lim mavzulariga doir adabiyotlar ustida ishlash va ularni puxta o'zlashtirish, amaliy mashg'ulotlari uchun nazariy ma'lumotlarni to'plash va chuqur o'rganish, taqdimotlar tayyorlash talab qilinadi.

3.1. Mustaqil ta'lim mavzulari ustida ishlash bo'yicha tavsiyalar:

Talabalar fan bo'yicha o'quv, o'quv-usuliy, ilmiy adabiyotlarni chuqur o'zlashtirib, internet saytlaridagi manbalar va media ta'lim resurslaridan o'rinni foydalangan holda, mustaqil ta'lim topshiriqlari, mashg'ulot mavzulariga doir vazifalarni bajarishlari lozim.

Mustaqil ishini tayyorlashda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olib, quyidagi vazifalarni bajarish va mustaqil ta'lim shakllaridan foydalanish tavsiya qilinadi:

1. Darslik va o'quv qo'llanmalari bo'yicha fan mavzularini o'rganish.
2. Tarqatma materiallar bo'yicha nazariy qismini o'zlashtirish.
3. Internet saytlaridan ma'lumotlarni tanlash va o'zlashtirish.
4. Fanga doir adabiyotlar bo'yicha tushunchalar konspektini yozish.
5. Mustaqil ta'lim mavzulari bo'yicha referat tayyorlash.
6. Amaliy mashg'ulotlar uchun taqdimot tayyorlash.
7. O'rganilayotgan masalalar bo'yicha tezis, maqola yoki ma'ruza

tayyorlash.

8. Mavzularni o'rganishda grafikli organayzerlardan foydalanish.

3.2. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Arab undosh harflari ustida ishlash. Qisqa va cho'ziq unliqlar.
2. Shamsiy va qamariy harflar. Aniqlik anikli xususida asosiy va qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda chuqurroq ma'lumot olish.
3. Eski o'zbek yozuviga xos harflar yozilish shakllari va talaffuzi.
4. Eski o'zbek yozuviga xos harfiy birikmalar va ularning o'qilishi xususida asosiy va qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda chuqurroq ma'lumot olish.
5. Ot so'z turkumi xususida asosiy va qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda chuqurroq ma'lumot olish.
6. Sifat. Tub, nisbiy va rangni anglatuvchi sifatlar. Mavzuga oid asosiy va qo'shimcha adabiyotlar asosida mashqlar bajarish.
7. Olmoshlar. Mavzuga oid asosiy va qo'shimcha adabiyotlar asosida mashqlar bajarish.
8. So'z o'zagi. O'zak undoshlar. Shakl yasovchi undoshlar mavzusi bo'yicha qo'shimcha ma'lumot o'qish.
9. So'z vaznlari mavzusi bo'yicha qo'shimcha ma'lumot o'qish.
10. Jins kategoriyasi mavzusi bo'yicha qo'shimcha ma'lumot o'qish.
11. Kelishik kategoriyasi mavzusi bo'yicha qo'shimcha ma'lumot o'qish.
12. Son kategoriyasi. Ikkilik son mavzusi bo'yicha asosiy va qo'shimcha adabiyotlar asosida mashqlar bajarish.
13. Ko'plik son. lo'g'ri va siniq ko'plik mavzusi bo'yicha asosiy va qo'shimcha adabiyotlar asosida mashqlar bajarish.
14. Son. Sanoq va tartib son va ularning qo'Mianiishi mavzusi bo'yicha asosiy va qo'shimcha adabiyotlar asosida mashqlar bajarish.
15. Holat kategoriyasi mavzusi bo'yicha qo'shimcha ma'lumot o'qish.
16. Ismiy gaplar mavzusi bo'yicha asosiy va qo'shimcha adabiyotlar asosida mashqlar bajarish.
17. So'roq gaplar va uning turlari mavzusi bo'yicha asosiy va qo'shimcha adabiyotlar asosida mashqlar bajarish.
18. Fe'liy gaplar mavzusi bo'yicha asosiy va qo'shimcha adabiyotlar asosida mashqlar bajarish.
29. Old ko'makchilar (prediologlar) mavzusi bo'yicha asosiy va qo'shimcha adabiyotlar asosida mashqlar bajarish.
30. Prediologlarga qo'shiluvchi birikma olmoshlar mavzusi bo'yicha

qo'shimcha ma'lumot o'qish.25. Kesimi old ko'makchi bilan kelgan ismiy gap mavzusi bo'yicha asosiy va qo'shimcha adabiyotlar asosida mashqlar bajarish.

32. So'z birikmasi. Moslashgan (sifatlovchi) aniqlovchi mavzusi bo'yicha

qo'shimcha ma'lumot o'qish. Mashqlar bajarish.

33. Moslashmagan (qaratqichli) aniqlovchi (izofa) mavzusi bo'yicha qo'shimcha ma'lumot o'qish. Mashqlar bajarish.

34. Egaga ta'sir qiluvchi yuklamalar mavzusi bo'yicha qo'shimcha ma'lumot o'qish.

35. Y mutlaq inkor yuklamasi mavzusi bo'yicha qo'shimcha ma'lumot o'qish.

36. Fe'l boblari. Uch undoshli fe'llarning I bobi. Fe'ling o'tgan va hozirgi-kelasi zamon shakli mavzusi bo'yicha qo'shimcha ma'lumot o'qish.

37. To'ldiruvchi mavzusi bo'yicha asosiy va qo'shimcha adabiyotlar asosida mashqlar bajarish.

Mavzular talabalar tomonidan fan bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar, shuningdek, qo'shimcha tarzda topilgan o'quv-ilmiy manbalar asosida puxta o'rganilib, "Mustaqil ta'lim mavzulari ustida ishlash bo'yicha tavsiyalar" da ko'rsatilgan mustaqil ta'lim shakllaridan foydalangan holda tayyorlanishi lozim.

Mustaqil ta'limga doir materiallarni o'zlashtirish va topshiriqlarni bajarish natijasi nazorat qilinadi. Mustaqil ishlar talabning o'quv fani bo'yicha bilim va malakasini baholashda inobatga olinadi.

IV. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

"Sharq tillari" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- arab yozuvi va uning tarqalishi, arab harflarining o'ziga xos xususiyatlari, arab tili fonetikasi, morfologiyasi, punktuatsiyasi, arab tili lug'ati haqida tasavvurga ega bo'lishi;

- arab tilida imlo qoidalarini, arab tilida so'z yasashini, arab tilida o'zak va u orqali so'zlarni topa bilishni, arab imlosidagi matnlarni qiyinchiliksiz mutolaa qilib tabdil qila olishni, o'zbek tili tarkibidagi arab so'zlarni tahlil qila olishni;

- arab imlosining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, arab tilida so'z yasalishij va grammatik qoidalarini aniqlash, arab yozuvidagi matnlarni transkripsiya qilish, arab alifbosidagi matnlarni o'qish, arab imlosidagi matnlarni transkripsiya qilish, arab imlosida yozishni bilish, arab va fors tilidagi, so'z va iboralarni tarjima qilishda lug'atdan foydalana bilish, arab imlosida xatosiz yoza bilishi va ulardan foydalana olishi;

ilmiy axborot bilan ishlash, o'qish, yozish, arab imlosidagi qo'lyozma, toshbosma gazeta, jurnal va ilmiy asarlarni o'qish, ulardan o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan axborotlarni olish, joriy imloga tabdil va tahlil qila olish va ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- interfaol keys-stadilar;
- mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar;
- individual loyihalar;
- jamoaviy ishlash va himoya qilish uchun loyihalalar.

VI. Kreditlarni to'plash tartibi va talablari:

Fanga oid nazariy tayanch tushuncha va masalalarni to'liq o'zlashtirish, amaliy tahlil malakasiga ega bo'lish hamda tahlil natijalarini aniq, dahili va to'g'ri aks ettira olish, fan doirasidagi masalalar bo'yicha mustaqil mushohada yuritish va mantiqiy izchil xulosalash, oraliq va yakuniy nazorat turlariga doir vazifalarni -yozma ish, og'zaki savol-javob yoki test shaklidagi topshiriqlarni bajarish lozim.

Talaba semestr yakuniga qadar 5 kredit to'plashi zarur va bunga 100 ball beriladi.

Ballar taqsimoti

| N ^o | Fanga oid nazorat turi | Ball miqdori |
|----------------|------------------------|--------------|
| 1. | Oraliq nazorat | 50 |
| 2. | Yakuniy nazorat | 50 |
| | Jami: | 100 |

Talabalarni baholash tartibi

Baholash tartibi o'z ichiga nazoratlar turi (oraliq, joriy va yakuniy)ni qamrab oladi. Talabani o'zlashtirish darajasi quyidagi yo'l bilan baholanadi:

| Darajasi | Ballar (foiz) | Reyti g |
|----------|-----------------------|---------|
| A+ | 95 - 100 ball | 5 |
| A | 90 - 94 ball | 4.0 |
| B+ | 85 - 89 ball | 3.5 |
| B | 80 - 84 ball | 3.0 |
| C+ | 75 - 79 ball | 2.5 |
| C | 70 - 74 ball | 2.0 |
| D+ | 65 - 69 ball | 1.5 |
| D | 60 - 64 ball | 1.0 |
| F | 59 ball va undan past | 0.0 |

Talabani o'zlashtirishini belgilash mezonlari

“A+”, “A”, “B+”, “B” baho: talaba materiallarni mustaqil ravishda tez o'zlashtiradi; xatolarga yo'l qo'ymaydi; mashg'ulotlarda faol ishtirok etadi; savollarga to'liq va aniq javob beradi.

“B”, “C+”, “C” baho: talaba materiallarni yaxshi o'zlashtirgan, uni mantiqiy ifoda eta oladi; mashg'ulotlarda faol ishtirok etadi; savollarga to'liq va aniq javob beradi, biroq uncha jiddiy bo'lmagan xatolarga yo'l qo'yadi.

“D+”, “D” baho: asosiy materiallarni biladi, biroq aniq ifoda etishga qiyinladi; savollarga javob berishda aniqlik va to'liqlik yetishmaydi; materiallarni taqdim etishda ayrim xatoliklarga yo'l qo'yadi; kommunikatsiya jarayonida qiyinchilik sezadi.

“F” (o'tmadi) baho: materiallarni o'zlashtirmagan; savollarga javob bera olmaydi; mashg'ulotlarda ishtirok etmaydi.

Talabalarni baholashda quyidagilar hisobga olinadi:

- mashg'ulotlardagi ishtiroki (davomati);
- mashg'ulotlardagi faollik va ijodiy yondashuv.

- asosiy va qo'shimcha o'quv materiallarini o'zlashtirganlik;
- mustaqil ta'lim bo'yicha topshiriqlarning o'z vaqtidagi ijrosi;
- nazoratning barcha turlarini o'z vaqtida bajarilganlik.

Akademik va etlik talablar

Nazorat topshiriqlarini bajarishda ko'chirmakashitkka (plagiatsizlikka) yo'l qo'yilmaydi.

Test, o'quv loyihalari, mustaqil ishlar, oraliq, joriy, yakuniy nazorat topshiriqlarini boshqa shaxslardan ko'chirib olinishiga yo'l qo'yilmaydi, boshqa talabani o'muga imtihon topshirish ta'qiqlanadi.

Kurs bo'yicha har qanday nazorat topshirig'ini soxtalashirgan talaba “fanni o'zlashtirmagan” (“F”) hisoblanadi.

Mashg'ulotlar paytida mobil aloqa va boshqa elektron qurollardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Mashg'ulotlar paytida auditoriyada (virtual auditoriyada) belgilangan talablarga zid harakatlarni qilish mumkin emas.

Boshqalar va turli fikrlarga tolerant munosabatda bo'lish talab etiladi.

Mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur ma'lumotlar va turli materiallar bo'yicha savollarga quyidagi grafik asosida o'qituvchiga murojaat qilishingiz mumkin:

| N ^o | Kun | Vaqt | Xona |
|----------------|-----|------|------|
| 1. | | | |
| 2. | | | |

VII. O'QUV FANI BO'YICHA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR VA AXBOROT MANBALARI

Asosiy adabiyotlar:

1. Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 1,2-jildlar.-T., 1998, 2003.
2. Talabov E. Arab tili. -T.: "O'qituvchi", 1993.
3. Astanova G. Arab tili saboqlari. Buxoro,

Qo'shimcha adabiyotlar:

4. Mirziyev Sh.M. Буюк келажгимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
5. Mirziyev Sh.M. 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон “Ўзбекистон Республикасининг тасдиқлаш тўғрисида”ги фармони/www.lex.uz
6. Mirziyev Sh.M. 2020 йил 20 октябрдаги ПФ-6084 сон “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини